



MARKAZIY VA JANUBIY OSIYO TRANSPORT KORRIDORLARINI KENGAYTIRISHNING UMUMIY MASALALARI

Latifjonov Temurbek Dilmurodovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17934692>

ARTICLE INFO

Received: 1st December 2025

Accepted: 2nd December 2025

Published: 15th December 2025

KEYWORDS

Markaziy Osiyo, Janubiy Osiyo, transport koridori, tranzit, infratuzilma, hamkorlik, iqtisodiy integratsiya, transport tarmoqlari, mintaqaviy rivojlanish.

KIRISH

Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalari iqtisodiyoti va siyosiy ahamiyati ortib borayotgan global bozor sharoitida transport sohasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mintaqalar orasida mavjud transport koridorlarini kengaytirish va ularni yaxshilash orqali xalqaro savdo hajmini oshirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirish va mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash mumkin. Biroq, ushbu jarayonda transport yo'llarining holati, siyosiy iqlim, moliyaviy resurslar va mintaqalararo koordinatsiya kabi bir qator muammolar yuzaga kelmoqda.

Asosiy qism

Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalari geografik joylashuvi va iqtisodiy ahamiyati bugungi kunda global savdo va transport tizimidagi asosiy elementlardan biriga aylangan. Bu hududlar orasidagi transport koridorlari faollashishi mintaqaviy va xalqaro savdo aloqalarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, So'g'diy va Hind okeani oralig'idagi joylashuv biroz murakkab siyosiy va iqtisodiy o'zaro bog'liqliklarga sabab bo'layotgan bo'lsa-da, transport sohasida samarali hamkorlikni ta'minlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Markaziy Osiyo davlatlari, xususan Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston hamda Tojikiston transport koridorlarining kengaytirilishi uchun katta imkoniyatlarga ega. Ushbu mamlakatlar boy tabiiy resurslarga, iqtisodiy salohiyatga ega bo'lish bilan birga, temir yo'l va avtomobil yo'llari orqali Janubiy Osiyoga, xususan Hindiston va Pokistonga ulanish yo'llarini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berishmoqda [1]. Bu esa mintaqacha uchun tranzit potensialini oshirish bilan birga yangi ish o'rinlari yaratishi mumkin. Janubiy Osiyo davlatlari uchun esa, Markaziy Osiyo orqali Yevropa, Sharqiy Osiyo va Rossiya bozorlariga chiqish imkoniyati strategik jihatdan juda muhimdir. Hindiston va Pokiston kabi yirik iqtisodiyotlar uchun Markaziy Osiyo transport yo'llarining rivojlanishi uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda yangi imkoniyatlarni ochadi. Shu bilan birgalikda, mintaqacha ichidagi ichki siyosiy iqlim va o'zaro ishonch masalalari ham transport loyihalarini amalga oshirishda muhim omil bo'lib qolmoqda. Markaziy Osiyo geostrategik va geoiqtisodiy jihatdan muhim hudud bo'lib, uning transport koridorlari xalqaro savdo, iqtisodiy integratsiya va mintaqaviy rivojlanish uchun alohida ahamiyatga ega. Mintaqaning o'ziga xos geografik joylashuvi – Sharq va G'arb,

ABSTRACT

ushbu maqolada Markaziy va Janubiy Osiyo transport koridorlarini kengaytirishning umumiy masqalari tahlil qilinadi. Transport infratuzilmasining hozirgi holati, mintaqalararo integratsiya, hamkorlik imkoniyatlari va mavjud to'siqlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, transport koridorlarini rivojlantirish orqali iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, savdo hajmini oshirish va mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash yo'llari taklif etiladi.

Shimol va Janub orasidagi bog'lovchi ko'prik sifatida – transport va logistika tizimlarining rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi. Markaziy Osiyo – Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston – Yevropa va Osiyo o'rtasidagi transport aloqalari uchun strategik yo'nalish hisoblanadi. Ayniqsa, Xitoyning "Bir Kamar – bir yo'l" tashabbusi doirasida mintaqaning transport koridorlariga bo'lgan qiziqish oshdi. Ushbu yo'llar orqali Xitoy, Rossiya, Turkiya, Eron, Yaqin Sharq va Yevropa mamlakatlari o'rtasida tovar almashinuvi jadallashtirilmoqda. Qozog'iston eng yirik eksportchi va importchi bo'lib, 2022-yilda eksport hajmi 84,4 milliard AQSh dollarini, import esa 47 milliard AQSh dollarini tashkil qilgan. Bu davlatning tabiiy resurslari, xususan, neft va gaz eksporti katta ahamiyatga ega. O'zbekiston ikkinchi o'rinda bo'lib, eksport hajmi 19,3 milliard AQSh dollarini, import hajmi esa 25,5 milliard AQSh dollarini tashkil qilgan. Bu mintaqaning iqtisodiy jihatdan eng faol mamlakatlaridan biridir. Turkmaniston tabiiy gaz va neft mahsulotlari eksport qilishi bilan mashhur bo'lib, umumiy eksport hajmi 11 milliard AQSh dollari tashkil qiladi. Qirg'iziston va Tojikiston mintaqaning nisbatan kichikroq iqtisodiyotlariga ega bo'lib, ular asosan oltin, to'qimachilik va paxta kabi tovarlarni eksport qiladi. Qozog'iston va Turkmaniston energiya resurslari eksportida yetakchi bo'lib, neft va gaz mahsulotlari asosiy eksport hajmini tashkil qiladi. O'zbekiston va Tojikiston rangli metallar (masalan, al'yuminiy) va qishloq xo'jalik mahsulotlarini (masalan, paxta) eksport qiladi [2]. Qirg'iziston oltin eksporti bo'yicha yetakchi bo'lib, shuningdek, to'qimachilik mahsulotlari ham muhim ahamiyatga ega. Xitoy va Rossiya Markaziy Osiyo mamlakatlarining asosiy savdo sheriklari hisoblanadi. Bu davlatlar bilan savdo aloqalari neft, gaz va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksport va importiga asoslangan. Yevropa mamlakatlari (Italiya, Niderlandiya, Germaniya) ham Qozog'istonning savdo sheriklari orasida katta o'rin tutadi. Markaziy Osiyo mamlakatlari o'zaro hamkorlikda bo'lib, bu mintaqaning ichki savdosini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Transport infratuzilmasining hozirgi holati mamlakatlar orasidagi savdo aloqalarini rivojlantirishda asosiy to'siqlardan biridir. Ko'plab mamlakatlarda yo'l-yo'lakay infratuzilmalar eskirgan, modernizatsiyaga muhtoj va logistika tizimlarining samaradorligi past darajada. Bu esa tranzit xarajatlarini oshirib, transport jarayonlarini sekinlashtiradi. Shuning uchun keng ko'lamlı investitsiyalar va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik qilish zarurati mavjud. Mintaqalararo hamkorlik va siyosiy integratsiya transport koridorlarini kengaytirishda eng muhim jihatlardan biridir. Taassufki, Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlari orasida o'zaro ishonch darajasi past bo'lib, ba'zan siyosiy qarama-qarshiliklar natijasida yirik transport loyihalari to'xtab qolmoqda. Shu bois, siyosiy dialogni kuchaytirish va mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish orqali bu muammolarni bartaraf etish zarur. Transport koridorlarini kengaytirish orqali mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish mumkin. Bu jarayon bir tomondan transport infrastrukturasi orqali tovarlar, xizmatlar oqimini tezlashtirar ekan, ikkinchi tomondan mehnat migratsiyasini va madaniy aloqalarni ham rivojlantiradi [3]. Natijada, iqtisodiy tarmoqlar bir-biriga yaqinlashib, yangi sanoat va savdo klasterlari paydo bo'lishi mumkin. Transport koridorlari orqali tashqi savdo jarayonlari sezilarli darajada faollashmoqda. Xususan, mintaqaning asosiy savdo sheriklari – Xitoy, Rossiya, Turkiya, Eron, Hindiston va Yevropa davlatlari – Markaziy Osiyo orqali olib o'tiladigan transport yo'llari yordamida tovarlarni tez va arzon narxlarda yetkazib berish imkoniyatiga ega bo'lishmoqda. Bu Markaziy Osiyo davlatlariga o'z eksport hajmini oshirish, import operatsiyalarini osonlashtirish va xalqaro savdo integratsiyasida faolroq ishtirok etish imkonini beradi. Xitoy va Yevropa davlatlari o'rtasidagi savdo jarayonlarida Markaziy Osiyo transport koridorlari alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, "Bir Kamar – bir yo'l" tashabbusi doirasida Xitoyning Yevropa bilan savdo aloqalarini tezlashtirish uchun yangi transport yo'llarini ochishga bo'lgan qiziqishi ortdi. Bu yo'nalishda Xitoy – Qozog'iston – O'zbekiston – Turkmaniston orqali Eron va Turkiya yo'nalishidagi transport koridorlari savdo tovarlarining qisqa muddatda va samarali ravishda yetkazib berilishi uchun asosiy tarmoqlar hisoblanadi [4]. Ushbu koridor orqali konteyner poyezdlari va avtomobil

transporti tez va arzon xarajatlar bilan ishlatilishi savdo aloqalarini jadallashtiradi. Rossiya, Eron va Hindistonni bog'laydigan Shimol-Janub transport koridori ham mintaqaning tashqi savdosiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu yo'l orqali Markaziy Osiyo davlatlari, xususan, O'zbekiston va Turkmaniston, Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlari bilan savdo qilish imkoniyatiga ega bo'lib, mintaqa iqtisodiyotini yanada diversifikatsiyalash imkonini yaratadi. Bu transport yo'li orqali eksport va import jarayonlari tezlashtiriladi, bojxona rasmiylashtiruvini soddalashtiriladi va tranzit operatsiyalar samaradorligi oshiriladi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan, transport xarajatlarini kamaytirish Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa nafaqat ichki bozorlar uchun, balki xalqaro eksport sohalarida ham iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Jumladan, tabiiy resurslar va sanoat mahsulotlarining qimmatli bozorga tez va arzon yetkazilishi yangi investitsiya oqimlarini jalb qilish imkonini beradi [4].

Transport tizimining modernizatsiyasi va raqamlashtirilishi ham kelajak uchun muhim yo'nalish hisoblanadi. Elektron hujjat almashinuvi, avtomatlashtirilgan bojxona tekshiruv, yo'l harakati monitoring tizimlari kabi yondashuvlar orqali tranzit jarayonlarini yanada samarali qilish mumkin. Bunday texnologik yechimlar transport jarayonlarini tezlashtirish, xavfsizlikni oshirishda va korrupsiyani kam ayitirishda muhim rol o'ynaydi. Moliyaviy resurslarni jalb etish masalasi ham kengaytirish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Mintaqaviy transport loyihalari ko'pincha katta investitsiyalarni talab qiladi, shu sababli davlatlar va xususiy sektor o'rtasida samarali sherikliklar o'rnatilishi lozim. Qo'shma moliyalashtirish modelini joriy etish orqali infratuzilma tarkibiy qismlarini modernizatsiya qilish va yangi yo'llar qurish amaliyoti tezlashtiriladi. Bandlik va ijtimoiy rivojlanish sohasida ham transport koridorlarini kengaytirish ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Infratuzilma rivojlanishi yangi ish o'rinlari yaratish, mintaqaviy aholining turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, transport aloqalarining yaxshilanishi mintaqalar oralig'i madaniy va ijtimoiy o'zaro bog'liqliklarni mustahkamlash imkonini beradi, xalqlar o'rtasida do'stona munosabatlarni rivojlantiradi. Natijaviy qilib aytganda, Markaziy va Janubiy Osiyo transport koridorlarini kengaytirish nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va ijtimoiy nuqtai nazardan ham katta ahamiyatga ega. Mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish, infratuzilmalarni modernizatsiya qilish va raqamlashtirish orqali bu yo'nalishda keng ko'lamli o'sish va rivojlanish mumkin. Kelajakda ushbu transport tarmoqlari global savdo tizimida muhim markaziy rol o'ynashi uchun hukumatlar va xalqaro tashkilotlar birgalikda harakat qilishlari zarur. Markaziy Osiyo transport koridorlari nafaqat savdo hajmini oshirish, balki logistika jarayonlarining samaradorligini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy infratuzilma – yangi avtomobil va temir yo'l tarmoqlari, portlar va tranzit markazlari – savdo operatsiyalarining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bojxona rasmiylashtiruvining soddalashtirilishi, xalqaro standartlar asosida logistika xizmatlarining takomillashtirilishi va elektron savdo tizimlarining joriy etilishi mintaqa tashqi savdosining raqobatbardoshligini oshiradi. Mintaqaning tashqi savdosidagi transport koridorlarining o'rniga qaramasdan, bir qator muammolar ham mavjud. Jumladan, yo'l infratuzilmasining ba'zi joylarda yetarlicha rivojlanmaganligi, logistik xarajatlarning yuqoriligi, bojxona tartiblarining murakkabligi mintaqaning xalqaro savdodagi rolini to'liq amalga oshirishiga to'sqinlik qilmoqda. Shuningdek, davlatlar o'rtasidagi hamkorlikning ba'zan cheklanganligi va raqobat transport koridorlarining rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Markaziy Osiyoning transport koridorlari mintaqa tashqi savdosining rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda. Ushbu koridorlarni yanada rivojlantirish, davlatlararo hamkorlikni kuchaytirish va transport-logistika tizimini takomillashtirish orqali mintaqa davlatlari xalqaro savdo bozorida yanada yuqori raqobatbardoshlikka erishishlari mumkin. Ayniqsa, transport koridorlarining yangi yo'nalishlari, zamonaviy transport va logistika infratuzilmasining joriy etilishi va xalqaro savdo jarayonlarining soddalashtirilishi mintaqaning global iqtisodiyotga yanada chuqur

integratsiyalashuvini ta'minlaydi. Bu esa nafaqat mintaqaning iqtisodiy rivojiga hissa qo'shadi, balki tashqi savdoning samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Xulosa

Markaziy va Janubiy Osiyo transport koridorlarini kengaytirish mintaqaviy iqtisodiy integratsiya va barqaror rivojlanish uchun zarur shartdir. Buning uchun transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, siyosiy hamkorlikni mustahkamlash va moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish lozim. Mintaqaviy transport tizimlarini yaxshilash orqali nafaqat savdo hajmi ortadi, balki mintaqada tinchlik va hamjihatlik mustahkamlanadi. Shu bois, umumiy manfaatlarni hisobga olgan holda, uzoq muddatli strategiyalar ishlab chiqish dolzarbdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Narzullayevich, A. J. (2024). Markaziy Osiyo mintaqaviy hamkorligini yanada rivojlantirish konsepsiyasi. Shokh library, 444-450.
2. <https://yuz.uz/uz/news/markaziy-va-janubiy-osiyoning-transport-aloqalarini-mustahkamlash-masalalari-muhokama-etildi>.
3. <https://iais.uz/uz/outputnew/the-new-architecture-of-transport-flows-in-uzbekistan-and-central-asia-is-a-priority-for-trade-and-economic-development>.
<https://www.uzbekistan.org.ua/uz/yangiliklar/7824-markaziy-osiyo-transport-integratsiyasi-o%E2%80%98zbekiston-va-turkmanistonning-hissasi.html>

INNOVATIVE
ACADEMY